

## Tarif (QQS va Maxsus ustama haq bilan)

Suv 1 m<sup>3</sup> 3800 so'm. Oqova 1  
m<sup>3</sup> 50 so'm

197

-sonli shartnoma

«Iste'molchi»larga ichimlik va oqova suvi xizmatlarini ko'rsatish uchun

«22» avgust 2022 y.

Ushbu shartnomani «Buxoro suv ta'minoti» MChJ Buxoro shahar filiali, keyingi o'rinlarda «Suv ta'minoti» deb yuritiladi. Nizom asosida faoliyat yurituvchi raxbari B.T. To'xtayev shaxsida, bir tomondan va keyingi o'rinlarda «Iste'molchi» deb yuritiluvchi Buxoro bun. mijozlari qo'shmasi korxonasi nomidan ikkinchi tomondan Ustav, ishonchnoma asosida osh olib boruvchi direktori I.B. Xudobayev, ishtirokida quyidagilar haqida tuzildi:

## I. Shartnoma predmeti

1.1. 2022 yil uchun suv yetkazish hajmi uchun tuzilgan shartnomaga muvofiq yuridik tashkilotlari (bundan buyon matinda II guruh «Iste'molchi» lari deb yuritiladi) uchun suv yetkazish 5996400 narx bo'yicha 1578 m<sup>3</sup> ni:

1 m<sup>3</sup> ichimlik suv uchun 3800 so'm (+QQS 15%), + \_\_\_\_\_ so'm (maxsus ustama haq) ni;

1 m<sup>3</sup> oqova suv uchun 50 so'm (+QQS 15%), + \_\_\_\_\_ so'm (maxsus ustama haq) ni tashkil qilmoqda.

Shu tariqa shartnomaning umumiy qiymati 5996400 so'm ni tashkil qildi. (summa yozuv bilan)

Shu jumladan, byudjet mablag'laridan 5996400 so'm, byudjetdan tashqari mablag'laridan \_\_\_\_\_ so'm byudjetdan tashqari mablag'lardan to'lanishi ko'zda tutilgan.

II guruh iste'molchilari Qoidalarda belgilangan tarzda «Suv ta'minoti» tomonidan taqdim qilingan hisobvaraqa-fakturalarga asosan, Moliya vazirligi G'aznachiligi orqali Suv ta'minoti va oqova suvini chiqarish uchun o'tkazilgan mablag'lar orqali amalga oshiriladi.

1.2. «Suv ta'minoti» «Iste'molchi»ni sifatli ichimlik suv bilan ta'minlash va «Iste'molchi»dan oqova suvlarni qabul qilish olish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

1.3. «Iste'molchi» «Suv ta'minoti»ga ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun to'lovlarni xar oyning 10 sanasigacha 100 foizlik oldindan haq to'lash tariqasida amalga oshirish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

1.4. Taraflar ushbu shartnomaning ichimlik va oqova suv xizmatlari bo'yicha shartlarini bajarish. O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi talablariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 15 iyuldagi 194-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Iste'molchilarga suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari ko'rsatish Qoidali»ga (keyinchalik matnda – Qoidalar deb yuritiladi), hamda mahalliy hokimiyat tomonidan tasdiqlanadigan maxsus ustama haqi 1 m<sup>3</sup> ichimlik suv uchun 3800 so'm, 1 m<sup>3</sup> oqova suv xizmati uchun 50 so'm bilan birga «Suv ta'minoti» tomonidan taqdim qilingan ichimlik va oqova suv tizimiga ulanish uchun ruxsat etuvchi hujjatlarga rioya qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladilar.

## II. Umumiy qoidalar

2.1. «Iste'molchi» «Suv ta'minoti» tashkiloti ruxsati bilan va u texnik imkoniyatlarni mavjud deb topgan holatlarda, o'z tasarrufidagi ichimlik va oqova suv tarmoqlariga, inshoot va qurilmalarga subiste'molchilarning ulanishiga ruxsat berish huquqiga ega.

2.2. «Iste'molchi» bilan subiste'molchi o'rtasida to'lov masalalarida paydo bo'ladigan nizolar «Suv ta'minoti» tashkiloti tomonidan ko'rib chiqilmaydi.

2.3. Agar «Iste'molchi» va unga ulangan subiste'molchi turli guruh va toifali iste'molchilariga mansub bo'lsa, «Suv ta'minoti» tashkiloti bilan shartnomani «Iste'molchi» ham, subiste'molchi ham tuzadi va suvni hisobga olish priborini o'rnatish har ikkalaishi uchun ham majburiy hisoblanadi.

2.4. Ichimlik suvdan dov-daraxtlarni sug'orish uchun foydalanilishiga quyidagi istisno holatlarda yo'l qo'yiladi: irrigatsiya suvi bo'lmaganda, suv ta'minoti tashkiloti quvvati mavjud bo'lganda va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan tasdiqlangan jadval bo'yicha, faqat tungi vaqtda (soat 00–00 dan soat 05–00 gacha) yo'l qo'yiladi.

2.5. Ichimlik va oqova suv xizmatidan iste'molchi xo'jalik-iste'mol, maishiy ehtiyoj va yong'inlarni o'chirish xamda texnologik va ishlab chiqarish jarayonlari uchun foydalaniladi.

2.6. Suvni hisobga olish priborlari O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi tomonidan tekshirilib plombalanadi, hamda «Suv ta'minoti» tomonidan plombalanishi lozim. Shuningdek, ichimlik suvini hisobga olish priborini yechish, qiyoslashdan o'tkazish va o'rnatish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

2.7. «Iste'molchi»ga o'rnatilishi lozim bo'lgan suv o'lchash priborining shartli o'tkazgichining diametri (kalibri) hisob-kitob asosida aniqlanadi, ob'ektning maksimal suv iste'moli va minimal suv iste'moliga tekshiriladi hamda «Iste'molchi» bilan kelishiladi. Hisoblash pribori uchun o'rnatilgan minimal iste'mol miqdoridan kam miqdorda suv iste'mol qilinganda, «Suv ta'minoti» xodimi suv o'lchash tarmog'ini qaytadan qurilma bilan ta'minlash uchun ko'rsatma beradi, ushbu ko'rsatma bajarilmaganda, hisoblash priborining ko'rsatkichlari qabul qilinmaydi va hisoblash Qoidalarda o'rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.

2.8. Ichimlik va oqova suv xizmatlari xo'jaligining kayta ta'mirlash (rekonstruksiyasi), hisoblash priborlarini ishga tushirish, hisoblash priborlarini almashtirish, yangi subiste'molchilarning ulanishi «Iste'molchi» tomonidan faqat «Suv ta'minoti» tarafidan tasdiqlangan texnik shartlar va loyiha asosida amalga oshirilishi mumkin bo'lib, ular «Iste'molchi»ning so'rovnomasi asosida, barcha tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilgan holda beriladi. «Suv ta'minoti»dan olingan texnik shartlar asosida, «Iste'molchi» buyurtmasiga asosan, amaldagi me'yor, qoidalar va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida ishlab chiqiladi.

2.9. Qurilgan ulamalarning ishga tushirilishi «Suv ta'minoti» tomonidan, «Iste'molchi» va qurilish tashkilot vakillarining ishtirokida amalga oshiriladi.

2.10. Ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun tariflar va ustama haq miqdori o'zgartirilgan sanasidan qat'i nazar, ushbu xizmatlar yuzasidan «Iste'molchi» bilan tuzilgan shartnoma o'z kuchini saqlab qoladi va «Iste'molchi» ko'rsatilgan xizmatlar uchun, yangi tariflar asosida, ular kiritilgan sanadan e'tiboran to'lovlarni amalga oshirishi shart.

2.11. Quyidagilar «**Suv ta'minoti**» tashkilotlari bilan «Iste'molchi»lar shu jumladan, xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari o'rtasidagi, ichimlik va oqova suv xizmatlari tarmoqlari, inshootlari xamda qurilmalariga xizmat ko'rsatish, ularning texnik holatini saqlash va foydalanish yuzasidan javobgarlik chegaralari hisoblanadi:

a) ichimlik suv iste'moli uchun — tarmoqqa ulanishini uzib qo'yuvchi kirish qulfi. Kirish qulfi bilan ichimlik suvga ulanish, «Iste'molchi»ning ichki ichimlik suvi tizimining bir qismi hisoblanadi;

b) oqova xizmati uchun — «Iste'molchi» oqova tizimining ichki qismi hisoblanuvchi, magistral oqova tarmog'iga ulanish nuqtasidagi chiqaruv qudug'i. Agar chiqaruvchi oqova qudug'i (kamerasi) magistral oqova tarmog'ida joylashgan bo'lsa, ushbu quduq «**Suv ta'minoti**» tashkiloti oqova tarmog'ining bir qismi hisoblanib, unga tutashiruvchi foydalanish chizig'i esa «Iste'molchi»ning mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

### **III. Tarafdarning huquq va majburiyatlari**

#### **3.1. «Iste'molchi»ning huquqlari:**

3.1.1. Tegishli sifat darajasidagi ichimlik suv va oqova suv tarmoqlariga xizmat ko'rsatish talablarini bajarmaganligi uchun «**Suv ta'minoti**» tashkilotidan qonunchilikda va shartnoma shartlarida ko'rsatilgan miqdorda jarima (penya)lar to'lashni talab qilish;

3.1.2. «**Suv ta'minoti**» tashkilotini shartnomani bekor qilish to'g'risida, uning bekor qilinishidan kamida 15 kun oldin ogohlantirgan holda va ushbu muddatda **Suv ta'minoti** yoki oqova suvni chiqarish bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarni to'liq amalga oshirgan holda shartnomani bir tomonlama bekor qilish;

3.1.3. Ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun amalga oshirilgan to'lovlarning holati, qarzlarning yo'qligi haqidagi ma'lumotlar va ma'lumotnomani shaxsan yoki o'z vakili orqali bepul olish;

3.1.4. «**Suv ta'minoti**» tashkilotidan ichimlik va oqova suv xizmatlari hajmi va sifati, ularni amalga oshirish shartlari, to'lovlar tarifi va tartiblarining o'zgarishi haqidagi ma'lumotlarni bepul olish;

3.1.5. Ichimlik va oqova suv xizmatlari ko'rsatilmayotganligi yoki ularning past sifatda ekanligi to'g'risidagi dalolatnoma taqdim etilgandan keyin 18 soat mobaynida «**Suv ta'minoti**» tashkilotidan nosozlik va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha ma'lumotlarni olish;

#### **3.2. «Iste'molchi» ning majburiyatlari:**

3.2.1. Oqova tarmog'ida avariya bo'lgan taqdirda yerto'la xonalarini suv bosishidan saqlaydigan barcha o'chiruvchi qurilmalarning but saqlanganligi, ishga yaroqliligi va normal texnik holatda bo'lishini ta'minlash;

3.2.2. Iste'molchiga qarashli sanitariya asboblari, oqova tarmoqlari, inshoot va qurilmalarda tambaning yo'qligi, reviziyalarning zich yopilmasligi, nosoz texnik holati tufayli iste'molchining oqova tarmoqlarida yoki «**Suv ta'minoti**» tashkilotida, ichimlik suv va oqovaning tashqi tarmoqlarida avariya (tiqilib qolish, suv bosish) sodir bo'lishi sababli yerto'la xonalarini suv bosishi oqibatida yetkazilgan zararni qoplashi;

3.2.3. «**Suv ta'minoti**» tashkiloti bilan hisob-kitob qilish uchun foydalaniladigan suvni hisobga olish pribori, aylanma liniya zulfini, yong'in zulfirlari, gidrantlar va uning hududida yoki tasarrufida bo'lgan hamda «**Suv ta'minoti**» tashkiloti tomonidan plombalangan boshqa ichimlik suv qurilmalaridagi plombalarning butligi va saqlash;

3.2.4. Shaxar suv bilan ta'minlash yoki oqova suvlarni uzatish tarmog'iga ulanishdan oldin, «**Suv ta'minoti**»dan belgilangan tartib asosida (DXMning xati asosida) Texnik shartlarini oladi, unga suv ta'minlash yoki oqova suvlarni uzatish tarmog'ining va o'ziga tegishli shaxar suv tarmog'iga ulangan barcha ob'ektlarning joylashish loyixasini taqdim etadi. «Iste'molchi» shaxar suv yoki oqova suvlarni uzatish tarmog'iga ulanish yoki undan uzilish xarajatlarini o'z zimmasiga oladi.

3.2.5. «**Suv ta'minoti**» tashkilotiga ichimlik va oqova suv tarmoqlari, inshootlari va qurilmalarining shikastlanishi tufayli yetkazilgan zarar uchun qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikni buyniga oladi;

3.2.6. Shaxar suv tarmog'iga ulangan har bir quvuriga suv o'lchash yig'masi (suv o'lchash va suv tutqich asbobi)ni Qoida asosida qulay va himoyalangan joyda, o'rnatiladigan suv o'lchagich shartli o'tkazmasi (kalibri)ning diametri «**Suv ta'minoti**»ning hisob-kitobi bilan aniqlanib, ob'ektning maksimal va minimal suv iste'moli tekshirilgach, tegishli ruxsatnoma berilgach o'rnatishni amalga oshiradi. Suv o'lchagich yig'masini xarid qilish va uni o'rnatish bilan bog'liq barcha sarf xarajat «Iste'molchi» zimmasiga bo'lib, u suv o'lchagich qurilmasi, uning texnik soz holati bo'yicha javobgar hisoblanadi va o'lchagichni Davlat standarti ko'rigidan o'tkazish sertifikatini amal qilish muddati o'tishidan 1 oy oldin bu haqda xabar beradi. O'lchagichni turiga qarab, ichimlik suvini hisobga olish uskunasi yechish, qiyoslashdan o'tkazish va o'rnatish tartibi qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi. «Iste'molchi»ga bu uchun 1 oy muxlat beriladi, belgilangan muddat ichida qiyoslovdan o'tkazilmagan taqdirda suv sarfi shartnomani 6.2 bandiga asosan hisoblanadi.

3.2.7. Iste'molchi suv o'lchagich yig'masidagi muxrlarning saqlanishini nazorat qiladi va buzilgan yoki suv o'lchagich ishdan chiqqan hollarda «**Suv ta'minoti**»ga zudlik bilan yozma ravishda xabar berishni o'z zimmasiga oladi. Xabar berilmagan taqdirda yoki «Suv ta'minot» xodimlari tomonidan aniqlangan holatda suv sarfi belgilangan tartib asosida hisoblanadi (shartnomaning 6.2 bandi). Suv o'lchash asboblari «Uzstandart» organlari yoki ularning vakolatli korxonalari tomonidan tekshirilishini, muxrlanishini hamda doimiy tekshiruvdan o'tishini o'z hisobidan ta'minlaydi. Suv o'lchash asbobini ta'mirlash yoki almashtirish, tekshirish maqsadida yechib olishdan oldin «**Suv ta'minoti**»suv o'lchagichni oxirgi ko'rsatmalarni yozma tasdiqlaydi.

3.2.8. Ichimlik suvi ta'minotining yong'inga qarshi tizimidan foydalanish to'xtatilganda «Iste'molchi» 24 soat mobaynida «**Suv ta'minoti**» tashkilotiga tamga uzilgani to'g'risida dalolatnoma taqdim etishi va zulfirlarni tamgalash uchun «**Suv ta'minoti**» tashkiloti vakilini chaqirish shart.

3.2.9. Mazkur shartnoma imzolanishi jarayonida o'z qarori va buyrug'i bilan (kelgusida o'zgartirilgan holatida) ichki suv yetkazish tarmog'iga, suv o'lchagich asboblari va korxonalarini taqdim etish uchun mas'ul bo'lgan javobgar shaxsini tayinlab, «**Suv ta'minoti**»ga ularni taqdim etadi. Iste'mol davri boshlanishi va kelgusi xar yil boshida oylik suv iste'mol miqdorini «**Suv ta'minoti**» bilan kelishib, tasdiqlaydi.

3.2.10. «Suv ta'minoti» vakilini suv o'lchash asbobi o'rnatilgan joyini va suv tarmog'ini istalgan paytda biror bir tuskinliksiz ko'zdan kechirishni ta'minlashi shart. Aks holda joriy oy uchun suv sarfi shartnomani 6.2 bandiga asosan xisoblanadi.

3.2.11. Shaxar suv tarmog'iga noqonuniy ulangani, foydalanilayotgan suv uskunalarining nosozligi va o'z hududidagi ichimlik suvidan behisob, tejamsiz sarflangani uchun «qoidalar» asosida javob beradi.

3.2.12. «Suv ta'minoti» bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq majburiyatlariga rioya qilish, har oyning 20 dan 25 gacha sanasida ko'rsatkichlarni o'z vaqtida va aniq yechib olish hamda ushbu ko'rsatkichlarni «Suv ta'minoti»ga kechikmagan holda hisobot oyida sarflangan ichimlik suvi bo'yicha vakolatli shaxslar tomonidan imzolaniib, muhri bilan tasdiqlagan hisobotni topshiradi. ichimlik suvini yetkazib berish va oqava suvlarni qabul qilish xizmatlari uchun amaldagi tariflar asosida «Suv ta'minoti»ning ushbu shartnoma bo'yicha ko'rsatilgan boshqa xizmat to'lovlarini o'z vaqtida to'lab boradi. Hisobot belgilangan muddatda topshirilmaganida shartnomaning 6.2 bandiga asosan va yoki undagi ma'lumotlar kamaytirib ko'rsatilgan hollarda esa ichimlik suv sarfi hisobot davri uchun shartnomaning tegishli bandiga asosan kayta hisoblanib, to'lovga qabul qilinadi. Agar hisobot taqdim etish jarayonida, «Suv ta'minoti» xodimi unda xatoliklar aniqlab, tuzatish kiritib, nusxasini qaytaradi. Iste'molchi tomonidan mazkur o'zgartirish, tuzatishlar asosida o'zining hisobotlarini 3 kunlik muxlatda «Suv ta'minoti»ga qayta taqdim etishi shart, aks holda bu tuzatishlar bilan topshirilgan hisobot asosli, haqiqiy deb hisoblanishiga olib keladi va foydalanilgan miqdor uchun to'lovni amalga oshirilishini talab qilishga asos hisoblanadi.

### **3.3. «Suv ta'minoti» ning huquqlari:**

3.3.1. «Suv ta'minoti» tashkiloti, iste'molchini 7 kun avval yozma ravishda ogohlantirgan holda, quyidagi holatlarda suvni uzatish va oqova suvlarni qabul qilishni to'liq va qisman to'xtatishi mumkin:

a) «Iste'molchi»ga tegishli va uning tasarrufida bo'lgan ichimlik va oqova suv tarmoqlari, qurilma va inshootlarning texnik holati qoniqarsiz bo'lganda va «Suv ta'minoti» tashkiloti vakillari tomonidan aniqlangan texnik foydalanishdagi xatoliklarni bartaraf etish bo'yicha «Suv ta'minoti» tashkiloti talablari iste'molchi tomonidan bajarilmaganda;

b) «Suv ta'minoti» tashkilot mansabdor shaxsi iste'molchining suvni hisobga olish uzeli, ichimlik va oqova suv tarmoqlari, qurilmalari va inshootlarini nazorat qilish hamda suvni hisobga olish pribori ko'rsatkichlarini qayd etish, plombalarni o'rnatish maqsadida ko'zdan kechirish, belgilangan limitdan ko'p sarf qilinganda suv berishni muvofiqlashtirish va «Suv ta'minoti» tashkiloti naryadlari bo'yicha boshqa ishlarni bajarish uchun kelganda iste'molchi tomonidan asossiz ravishda kiritilmaganda;

v) «Suv ta'minoti» tashkiloti tomonidan iste'molchi ulangan ichimlik va oqova suv tarmoqlari, qurilmalarida rejali-ogohlantirish tarzida ta'mirlash hamda xizmat ko'rsatish ishlari o'tkazilganda, shuningdek, yangi iste'molchilarni ulash ishlari amalga oshirilganda;

g) «Iste'molchi» tasarrufida bo'lgan ichimlik va oqova suv tizimlari yoki tarmoqlariga subabonentlarning o'zboshimchalik bilan ulangani aniqlanganda;

d) «Iste'molchi» tomonidan ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun belgilangan muddatlarda haq to'lanmaganda;

ye) «Iste'molchi»ning tasarrufida bo'lgan ichimlik va oqova suv tarmoqlariga, qurilmalariga «Suv ta'minoti» tashkilotidan ulanish uchun belgilangan tartibda ruxsatnoma olgan subabonentlarning tegishli tartibda ulanishi rad etilganda;

yo) «Iste'molchi» tomonidan shartnoma shartlari bajarilmaganda va u oqizilayotgan oqova suvlar miqdori va tarkibi bo'yicha shartlarga rioya qilmaganda.

3.3.2. Suv o'lchash asboblarning ko'rsatkichini, ularning muxrini saqlanishini va butunligini kuzatib boradi. Aniqlangan kamchiliklar yuzasidan «Iste'molchi»ning vakili ishtirokida dalolatnoma tuzadi va «Iste'molchi»ga amal qilish uchun ko'rsatmalarni beradi. «Iste'molchi» yuqorida ko'rsatilgan xujjatga qo'l qo'yishdan bosh tortsa, dalolatnoma nusxasi unga topshirilib, bunda u o'zining yozma e'tirozini asoslab 2 kunlik muddatda taqdim etishi shart, aks holda bir tomonlama tuzilgan dalolatnoma qonuniy hisoblanib, mazkur oyda hisob kitob uchun hisobxonaga to'lov undirishga qabul qilinadi. Agar kelgusida mavjud qarzdorlik ixtiyoriy to'lanmasa, xujjatlar iqtisodiy sudiga belgilangan tartibda murojaat qilishga asos bo'ladi.

3.3.3. «Suv ta'minoti» tashkiloti quyidagi holatlarda oldindan xabar qilmasdan suv uzatishni to'liq yoki qisman to'xtatishga haqli:

a) «Suv ta'minoti» tashkilotining elektr ta'minoti to'xtatilganda;

b) Tabiiy ofatlar ro'y berganda;

v) Avariya holatlarida;

g) Yong'in chiqqan joylarga suv uzatishni ko'paytirishga zarurat tug'ilganda.

### **3.4. «Suv ta'minoti»ning majburiyatlari:**

3.4.1. Suv ta'minotii va oqova suvni chiqarib yuborish yuzasidan shartnoma shartlarini bajarish;

3.4.2. Ichimlik va oqova suv tarmoqlarining texnik holatini muntazam ravishda nazorat qilib borish;

3.4.3. Tarmoqdagi ichimlik suv sifati monitoringini olib borish;

3.4.4. Iste'molchilarning ichimlik va oqova suv tizimlariga ulangan ichimlik suv va oqava tarmoqlari, inshootlari hamda qurilmalarining holatini va ulardan foydalanilishini muntazam ravishda nazorat qilib borish, ulardan samarali foydalanishni tashkillashtirishda iste'molchilarga amaliy yordam ko'rsatish;

3.4.5. Iste'molchilar tomonidan suvni behuda sarflaning olidini olish, sanoat korxonalari va ularga tenglashtirilgan korxonalarda suv berish bo'yicha belgilangan limitlarga rioya qilinayotganini muntazam ravishda nazorat qilish;

3.4.6. Suv iste'moli belgilangan me'yor (limit)lardan ortib ketgan holatlarda «Suv ta'minoti» tashkilotlariga belgilangan tariflarga nisbatan orttiriluvchi 10,0 koeffitsientni qo'llash;

3.4.7. Oqova suv tizimiga oqizilayotgan oqovalarning sifati monitoringini ta'minlash;

3.4.8. Shartnoma shartlariga muvofiq o'z majburiyatlarini bajara olmagan holatlarda iste'molchiga penya hisoblash;

3.4.9. Iste'molchilarning shartnoma shartlariga rioya etishmagan masalasi bo'yicha sud organlariga murojaat qilish;

3.4.10. Ichimlik va oqova suv xizmatlari tariflaridagi o'zgarishlar haqida ular amalda joriy qilinishidan 15 kun avval ommaviy axborot vositalari yordamida iste'molchilarni xabardor qilish;

3.4.11. Ichimlik va oqova suv xizmatlarini ko'rsatishda ro'y berishi mumkin bo'lgan rejali to'xtatish va uzilishlar haqida iste'molchilar uzilishlar boshlangungacha 10 ish kunidan kechikmay ogohlantirish.

### **IV. Tarafdarning javobgarligi**

4.1. «Suv ta'minoti» ushbu shartnomaga muvofiq majburiyatlarini bajarmaslikda yoki lozim darajada bajarilmagan hollarda kelib chiqqan zararni «Iste'molchi» esa avlii oilmishi oqibatida vertkazilgan haqiqiy zarar o'rmini oqonlashi shart

4.2. «Iste'molchi» quyidagilar uchun javobgardir:

- a) Ichimlik suvni hisobga olish asbobi tamgalari butligi, aylanish chizig'i jo'mragi, gidrant va boshqa suv uzatish moslamalaridagi qismlarining hududida va tasarrufida bo'lgan tamgalangan hisoblash qurilmalarining butun saqlanishi uchun;
- b) Suv tarmoqlariga o'zboshimcha ulanib olish, sovuq suvni hisobga olish qurilmalarining qasddan buzilishiga yo'l qo'yish hamda suv hisoblash asboblardagi ko'rsatkichlarni tashqaridan aralashgan holatlari uchun;
- v) O'zboshimchalik bilan qurilgan inshootlar sababli tarmoqlardagi avariya bo'lgan holatlarda;
- g) Drenaj tizimi mavjud bo'lsa «Iste'molchi» hududida joylashgan oqova tarmog'iga yomg'ir va erigan qor suvlarning tushishiga yo'l qo'yimaslik. Ushbu qoidabuzarlik aniqlanganda «Suv ta'minoti» o'rnatilgan tartibda dalolatnoma tuzadi va ushbu dalolatnoma «Iste'molchi»ning mas'uliyat va javobgarlik chorasini belgilash uchun asos bo'lib xizmat qiladi;
- d) Qonunchilikda o'rnatilgan boshqa hollarda.

4.3. «Suv ta'minoti» quyidagi hollarda javobgardir:

- a) Amldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarning talablariga muvofiq va qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa hollarda;
- b) «Iste'molchi»ning hayoti, salomatligi va mol-mulkiga yetkazilgan zarar uchun qonunchilikda o'rnatilgan tartib va miqdorda;
- v) Shartnoma shartlari va yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaslik.

#### V. Suv ta'minoti va suv chiqarish xizmatlari uchun hisoblar va to'lovlarning tartibi

5.1. Ichimlik va oqova suv ta'minoti tizimidan chiqarilgan (qabul qilingan) suvning hisobi hisoblash pribori mavjud bo'lganda, hisobga olish priborining ko'rsatkichlariga muvofiq amaldagi tariflar bo'yicha QQSni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

5.2 «Iste'molchi» ichimlik va oqova suv xizmati uchun hisobga olish priborlari mavjud bo'lganda oxirgi uch oyning o'rtacha sarfi bo'yicha keyingi oy uchun har oyning 10-sanasiga qadar 100 foiz oldindan haq to'lashni amalga oshirishlari lozim.

5.3 To'lovning shartnomada belgilangandan kechiktirilgan har bir kuni uchun iste'molchi, 0,4 foiz penya to'laydi. Ammo bu ko'rsatkich jami kechiktirilgan summaning 50 foizidan oshmasligi lozim.

5.4 «Iste'molchi» keyingi oy uchun har oyning 10-sanasiga qadar 100 foiz oldindan haq to'lovlarni amalga oshirmasalar, iste'molchilarni yozma ravishda xabardor qilgan paytdan boshlab besh ish kuni o'tgandan keyin qarzlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda iste'molchilarni ichimlik suv ta'minoti va suv chiqarish xizmati tarmoqlaridan uzib qo'yish yo'li bilan undirish choralari ko'radi.

Bunday hollarda yong'indan saqlanish va sanitariya holatlari uchun javobgarlik to'liq «Iste'molchi» zimmasiga yuklatiladi. Suv ta'minoti va oqova suv chiqarish tizimidan ilgari uzib qo'yilgan hollarda, uni qayta ulashda «Iste'molchi»dan bazaviy hisoblash miqdorining 10 (o'n) barobari miqdoridagi to'lov qayta ulashni amalga oshirgan tashkilot hisobiga undiriladi;

5.5. Oqova tizimiga kelib tushuvchi oqova suvining miqdori, ichimlik suv tarmog'idan yetkazib beriladigan ichimlik suv miqdoriga teng. Markazlashgan issiq suv ta'minoti mavjud bo'lgan hollarda, iste'mol qilinuvchi ichimlik suv miqdoriga oqova suv tarmoqlari xisobi uchun 2,0 koeffitsienti qo'llaniladi. «Iste'molchi»ning o'zida suv ta'minotining qurilmalari mavjud bo'lsa, oqova suvlarining miqdori ushbu suv qurilmalarining mahsuldorligiga o'rnatilgan va ro'yxatga olingan hisoblash priborlarining ko'rsatkichlariga ko'paytiriladi. Ichki suv ta'minoti tizimi «Iste'molchi»ning shaxsiy avtonom manbasi bilan bog'liq bo'lmasligi lozim.

5.6. Ob'ekt egasi avtonom suv ta'minoti (quduq, ochiq suv olish havzasi, irrigatsiya tizimi)ga va (yoki) markaziy oqova tizimidan boshqa oqova tashlash manbalariga ega bo'lgan holatlarda «Suv ta'minoti» tashkiloti bilan shartnoma tuzish uchun maxsus tabiiy suv ob'ektlaridan maxsus suv olish yoki iste'mol qilish uchun ruxsatnomani qo'shimcha ravishda taqdim etishi zarur.

5.7. Suv ta'minotining xususiy avtonom manbai (artezian skvajinasi, quduq, ochiq suv havzasi, irrigatsiya tizimi va boshqalar) mavjud bo'lganda oqova tizimiga oqova suvlarni oqizish uchun to'lovlar o'rnatilgan nasosning ishlab chiqarish quvvati yoki o'rnatilgan va ro'yxatdan o'tkazilgan hisoblash priborining ko'rsatkichlari asosida amalga oshiriladi. «Iste'molchi»ga qarashli bo'lgan avtonom suv ta'minoti manbaining ichki tizimi markaziy suv ta'minoti tizimi bilan tutashmagan bo'lishi shart.

5.8. Ushbu shartnomaning quyida keltirilgan choraklik, taxminiy iste'mol va to'lov jadvalida belgilangan miqdordan oshiqcha ichimlik va oqova suvlari sarf qilinsa, u holda bu o'zgarishlar yozma tushuntirish bilan tasdiqlanib, to'lov amalga oshiriladi. Iste'molchi tomonidan shartnomada ko'zda tutilgan miqdordan oshiqcha sarfi bo'yicha to'lov, tasdiqlangan jadval asosida emas, balki Iste'molchining suv o'lchagichidan amalda o'tgan ichimlik suvi miqdorida amalga oshiriladi (aloxida jarima qilingan holatlarini istisno etgan holda) Yil yakunida ortiqcha sarfga yo'l qo'yilsa, u holda bu haqda yozma tushuntirish berilishi hamda sarf qilingan ichimlik va oqova suvlari uchun

Yil	1-chorak	2-chorak	3-chorak	4-chorak	Jami bir yilda
2022 byudjet hisobidan to'lov	5996400				

amaldagi ta'rifni yuqori miqdoridagi to'lovlarni amalga oshirishi lozim.

#### VI. Aloxida shartlar.

6.1. Ob'ekt egasi o'zgariganda, iste'molchi ob'ektdan chiqib ketishidan 7 kun avval mavjud qarzlarni to'lab, bu haqda «Suv ta'minoti» tashkiloti bilan dalolatnoma imzolashi shart. «Iste'molchi» chiqib ketgach, suvni hisobga olish pribori, plombalarning butligi va qoplanmagan debitor qarzdorlik uchun javobgarlik ob'ektning yangi egasi zimmasiga yuklanadi.

6.2. Yetkazib berilgan yoki qabul qilingan ichimlik suvi xajmi quvurning o'tkazish qobiliyatidan kelib chiqib, oyning kalendar kunlari hisobidan quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$Q = M \times F \times \sqrt{2g \times H \times t}$$

bunda: M – 0.60 ga teng bo'lgan zulfing orqali suv sarfi koeffitsienti;

F – suyuqlik oqib o'tadigan quvur yoki teshik kesimi maydoni (ichki diametr bo'yicha)m<sup>2</sup>;

g – 9,81 m/sek ga teng bo'lgan erkin tushish tezligi; N – suvning metrlardagi bosimi; t – vaqt- 24 soat. sekundlarda.

*d = 50 mm, qo'sh 15884 x 2/100 x 4420 e*  
*inguzera beinot cenuzu sumas*

#### Quyidagi holatlarda yuqoridagi formula asosida hisob kitob yuritiladi:

- 6.2.1. «Iste'molchi»da suv o'lchash pribori va moslamalari yo'q (yoki nosoz xolatda) bo'lgan holatlarda;
- 6.2.2. Suv o'lchash asbobi yoki moslamasi «Suv ta'minoti»da ro'yxatdan o'tmagan taqdirda;
- 6.2.3. Ichimlik suvidan o'zboshimchalik bilan ulanib, foydalanganda;
- 6.2.4. Suv o'lchash asbobi, moslamasi ishdan chiqqan, singan, buzilgan holatda, sarflangan suv miqdori so'nggi tuzilgan dalolatnoma muddatidan yangi suv o'lchash pribori o'rnatilgan (ro'yhatdan o'tkazilgan) kungacha hisoblanadi;
- 6.2.5. «Suv ta'minoti»ning suv o'lchash bo'g'ini diametri katta bo'lganida, uni kichikroq bo'lgan moslamaga almashtirish to'g'risidagi talabnomasi qondirilmagan va bajarilmagan holatlarda;
- 6.2.6. Suv o'lchash asbobjining hisob-kitobini olib borish bo'g'inidagi qo'yilgan himoya qoplamiga (plombaga) ruxsatsiz tegilish natijasida, ichimlik suv sarfini aniqlash imkoniyati chegaralanganda;
- 6.3. Ichimlik va oqova suv tizimlariga (jumladan yong'indan saqlanish gidrant va quvurlariga) o'zboshimchalik bilan ulanib olingan va foydalanilgan holatlar aniqlanganda «Suv ta'minoti» tomonidan dalolatnoma tuziladi va shu tuzilgan dalolatnoma o'zboshimchalik bilan ulanib olgan shaxsning javobgarligi darajasini aniqlash va «Suv ta'minoti»ga yetkazilgan zararni hisoblash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bunda:
  - to'lov muddati, eng so'nggi tuzilgan dalolatnoma sanasidan o'zboshimchalik bilan ulanib olingan kun sanasigacha yoki yangi suv o'lchash pribori o'rnatilib, ro'yhatdan o'tkazilgan kungacha yoki o'zboshimchalik bilan ulanish uzib tashlangan kunga qadar hisobga olinadi;
  - o'zboshimchalik bilan ulanib olingan sanadan bu haqda ma'lum bo'lgan sanagacha, agar «Suv ta'minoti» balansdagi tarmoqlarga ulanish sodir etilgan bo'lsa, bu muddat da'vo arizasi yozilgan muddatdan oshmasligi zarur. Agar o'zboshimchalik bilan ulangan sanani topish, aniqlash mumkin bo'lmasa, bu muddat da'vo muddatiga teng deb olinadi.
- 6.4. Texnik shartlar 2 yil muddatga beriladi. Belgilangan muddat tugagach buyurtmachi (obektni loyihalashtirish va qurishni boshlash uchun) loyiha muddatini cho'zdirishi yoki yangi texnik shartlarni olishi zarur. Texnik shartlari mavjud bo'lmagan holda yoki muddati o'tgan holda, «Suv ta'minoti» tomonidan suv uzatish xizmatlarini yakunlashga asos bo'ladi.
- 6.5. «Iste'molchi» ichimlik va oqova suvni tarmoqlariga ulanish sanasi haqidagi hujjatlarni taqdim etmagan holatlarda «Suv ta'minoti» tomonidan xokim qarori va kadastr hujjatlari hamda shu kabilar asosida hujjat bilan tasdiqlangan ulanish sanasi bo'yicha hisob-kitob qilishga haqlidir.
- 6.6. Ishlatilgan ichimlik suvi va qabul qilingan oqova suv uchun to'lovlar «Suv ta'minoti» tomonidan taqdim etiladigan to'lov talabnomalari asosida ularga xizmat qiluvchi banklar orqali amalga oshiriladi. Bu to'lovlar «Iste'molchi» tomonidan 3 kunlik muddat ichida akseptsiz tartibda amalga oshiriladi. To'lovlar o'z vaqtida amalga oshirilmagan taqdirda «Suv ta'minoti» kechiktirilgan to'lovning har bir kuni uchun 0,4 foiz penya yozadi va uning umumiy qiymati asosiy to'lovning 50%dan oshmasligi lozim.
- 6.7. Oqova tizimiga ruxsat etilmagan yomg'ir va erkin qor suvlari oqizilayotgan, ishlab chiqarish oqova suvlarini «Iste'molchi»lar tomonidan tashlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 3 fevral kunida qabul qilingan 11 sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ishlab chiqarish oqova suvlarini qabul qilish qoidalari" hamda ifloslantiruvchi moddalarning O'zbekiston Respublikasi shaharlari va boshqa aholi punktlarining oqova tarmoqlariga normativdan ortiqcha oqizilganligi uchun «Iste'molchi»larga belgilangan tarifga nisbatan 3 (uch) barobar ortiriluvchi koeffitsient miqdor tartibida hisoblanadi. Iste'molchida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2010 yil 03 fevraldagi № 11 sonli Qarori bo'yicha belgilangan konsentratsiya miqdori haqidagi kommunal-ekologik normativ xujjat bo'lishi kerak
- 6.8. Oqova suvni chiqarib yuborishning hajmi va tarkibi bo'yicha me'yorlar bilan belgilangan oqizishning yo'l qo'yiladigan cheklangan miqdoridan ortiqcha oqova suvlar va ifloslantiruvchi moddalarning chiqarish taqiqlanadi.
- 6.9. Ifloslantiruvchi moddalarni normativdan ortiqcha oqizganlik uchun kompensatsiya to'lovlari hisoblab yozish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 12 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi hududida atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning iqtisodiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 202-son qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.
- 6.10. Ishlab chiqarish oqova suvlarini qabul qilish qoidalari hamda ifloslantiruvchi moddalarning O'zbekiston Respublikasi shaharlari va boshqa aholi punktlarining oqova tarmoqlariga normativdan ortiqcha oqizilganligi uchun kompensatsiya to'lovlari hisoblash tartibi asosida amalga oshiriladi, debitor qarzdorlik to'lanmagan taqdirda «Iste'molchi» oqova tarmoqlaridan uzib qo'yiladi.
- 6.11. Hisob-kitobning noto'g'ri qilinganligi (tariflarning noto'g'ri hisobiga olinganligi va shu kabi holatlar) to'g'risida «Iste'molchi» yoziladigan e'tiroznoma to'lov hujjati olingandan keyin 5 kun muddatda «Suv ta'minoti»ga taqdim etilishi kerak. E'tiroznoma «Iste'molchi»ni to'lov talabnomasi va xujjatida ko'rsatilgan summani to'liq va belgilangan muddatda to'lashdan ozod qilmaydi.

#### VII. Nizolarni hal etish tartibi

- 7.1. Taraflar o'rtasida shartnoma yuzasidan kelib chiqqan nizolar, kelishuv yo'li bilan hal qilinadi. Agarda ikki tomonlama kelishuvga erishilmasa, nizolar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq javobgar davlat ro'yxatidan o'tgan xududdagi sud organlarida ko'rib chiqiladi.
- 7.2. Ushbu shartnomada belgilangan holatlar yuzasidan nizo kelib chiqqan taqdirda Qonunchilikda belgilangan tartibda hal qilinadi.

### VIII. Fors – major

8.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch (fors major) holatlari (zilzila, suv toshqini, yong'in, sel, do'l, jala va boshqa tabiiy ofatlar) natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar muzkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek, ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

8.2. Fors-major holati mavjud bo'lgan tomon 3 kun ichida boshqa tomonni fors-major xolati boshlangan muddatlarni ko'rsatgan holda yozma ravishda ogohlantirishi lozim.

8.3. Agar fors-major holatining shartnoma shartlarini bajarishga uch oydan ko'p muddat to'sqinlik qilsa, tomonlardan biri shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

### IX. Shartnomaning amal qilish muddati

9.1 Ushbu shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib, ikki tarafda bir nusxadan saqlanadi.

9.2 Shartnoma g'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022 yilning dekabrigacha amal qiladi.

Ushbu shartnoma O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 14 sentyabrdagi "Shartnomaviy munosabatlarni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6313-son Farmon ijrosini ta'minlagan holda farmon talablaridan kelib chiqib ishlangan.

### X. Taraflarning yuridik manzili:

#### «SUV TA'MINOT»

Buxoro suv ta'minoti MChJ Buxoro shahar filiali

Manzil: Buxoro shahar Ibn Sino ko'chasi 111 uy

Tel: 65-221-13-08, faks 65-221-13-08

h/r 22638000300309412330

Bank ATIB Ipoteka bank Buxoro filiali

MFO 00088 STIR 201513859

Rahbar: Temirov Baxshillo Toxirovich

M.O. \_\_\_\_\_  
« \_\_\_\_\_ 2022 y.

#### «ISTE'MOLCHI»

Manzil \_\_\_\_\_

Tel: \_\_\_\_\_

g'az/h-r \_\_\_\_\_

Bank \_\_\_\_\_

Bank kodi \_\_\_\_\_

XHTUT \_\_\_\_\_

Shaxsiy raqam \_\_\_\_\_

Shaxsiy h-r \_\_\_\_\_

Bank \_\_\_\_\_

Bank kodi \_\_\_\_\_

(F.I.O. bo'linmasi nomi) \_\_\_\_\_

Rahbar \_\_\_\_\_

M.O. \_\_\_\_\_

(F.I.O. imzo) \_\_\_\_\_  
2022 y.

#### Yuridik xulosa:

Ushbu shartnoma O'zbekiston Respublikasi Fuqarorlik kodeksiga va O'zbekiston Respublikasi "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonun talablariga muvofiq tuzilgan, uni imzolab, amalda foydalansa bo'ladi.







